

OSIYO YALPIZI (*MENTHA LONGIFOLIA*) NING SISTEMATIK O'RNI, TIBBIYOTDA QO'LLASH UCHUN XOM ASHYO OLISH VA KIMYOVIY TARKIBI

Zohidov G'iyosiddin G'ulomiddin o'g'li

FarDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Osiyo yalpizining sistematik o'rni, undan nima maqsadlarda foydalanilishi, xom ashyoni olish va tayyorlash, tibbiyotda qo'llanilishi, qanday kasalliklarda ishlatilishi, o'simlik tarkibida qanday moddalar va qancha miqdordan borligi keltiriladi.

Bu oila vakillari asosan bir yillik va ko'p yillik o't, yarim buta, kamdan-kam tropik mamlakatlarda o'sadigan buta va daraxtlardan iborat. Poyalari 4 qirrali. Barglari oddiy, qarama-qarshi joylashgan, yonbargchalari yo'q. Gullari simoz to'pgullarda o'mashgan. Ular 3 gulli dixaziy yoki murakkab tuzilgan, qo'sh gajak to'pgullardan iborat. Gullari zigomorf (yalpizda to'g'ri gul), 5 bo'lakli, gulkosachasi 5 tishli, ba'zan 2 labli, ustki labi 3 bargchali, ostkisi 2 bargchali. Gultoj 5 bo'lakli, odatda 2 labli, ostkisi 3 toj bargli, ustkisi 2 toj bargli. Changchisi 4 ta. Changchi iplari gultoj nayiga birikkan. Urug_chisi 2 meva bargli. Tugunchasi ustki, 2 uyali, har bir uya 2 urug_kurtakli. Gul formulasi: $Ca(5)(3+2)Co(2+3)A4,2G(2)$. Har qaysi urug_kurtak orasida barvaqt to'siq hosil bo'ladi. Natijada tuguncha gavzabondoshlarnikiga o'xshash 4 bo'lakchaga ajraladi.

Gullari proterandriya, ya'ni changchi urug_chiga nisbatan tezroq yetiladi.

Mevasi bir urug_li 4 ta yong_oqchaga ajraladi. Urug_i deyarli endospermasiz. Hasharotlar yordamida chetdan changlanadi.

Yalpizdoshlar oilasi filogenetik jihatidan tizimguldoshlar oilasiga juda yaqin turadi. Murtak ildizining pastga qaraganligi bilan farq qiladi. Yalpizdoshlar oilasining deyarli barcha vakillari efir moylariga boy. Ularda sut yo'llari va kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar bo'lmaydi.

Yalpizdoshlar qabiladagi eng yirik oila. Uning vakillari asosan issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bu oilaga 200 tacha turkum, 3000 ga yaqin tur kiradi. O'rta Osiyoda 53 turkumga mansub 460 turi uchraydi. O'zbekistonda 42 turkumga oid 210 turi o'sadi. Yalpizdoshlar O'zbekistonda keng tarqalgan oilalardan bo'lib, ular foydali turlarga boyligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi. Ayniqsa, Yalpiz (*Mentha*), Marmarak (*Salvia*), Kiyiko't (*Ziziphora*), Bozulbang (*Lagochilus*), Tog_rayhon (*Origanum*), Limono't (*Melissa*), Arslonquloq (*Leonurus*) kabi turkumlarning vakillaridan juda

qadimdan tibbiyotda, oziq-ovqat, qandolatchilikda va parfumeriya sanoatida foydalanib kelinmoqda

Yalpiz yalpizkabilar (*lamidae*) kichik ajdodi, yalpiznamolar (*lamiales*) qabilasi, yalpizdoshlar (*lamiaceae*) oilasi, yalpiz (*menthe*) turkumi vakili hisoblanadi.

Mazkur oilaning aksariyat vakillari parfyumeriya, tibbiyot va oziq-ovqat sanoatida dorivor sifatida efir moyini ajratib olish uchun maxsus holda yetishtiriladi.

OSIYO YALPIZI (MENTHA LONGIFOLIA VAR. ASIATICA (BORISS) RECH.F.)

O'zbekistonda achchiq yalpiz "Shifobaxsh" ilmiy ishlab-chiqarish xo'jaligida va maxalliy aholi tomonidan tomorqalarda yetishtiriladi.

O'simlik ariq bo'ylarida, nam yetarli bo'lgan tog' qiyaliklarida ko'p sonli individlardan iborat populyatsiyalar hosil qilgan holda o'sadi.

XOM-ASHYO TAYYORLANISHI VA UNING SIFATI

Tabobatda achchiq yalpizning bargi, efir moylari va mentoldan foydalaniladi. Dorixonalar uchun o'simlikning bargi 50-75% gulga kirganda maxsus asboblar orqali yig'ib olinadi. Yuqori efir moylari saqlovchi navlari avgust-sentabr oylarida yig'ib olinadi. O'simlik barglarini quritish maxsus quritgichlarda 30-350S dan yuqori bo'lmagan haroratlarda olib boriladi. Davlat formakopeyasi bo'yicha achchiq yalpiz barglari uchun quyidagi talablar qo'yiladi: namlik 14% dan; kul 14% dan; 10% xlorid kislotada eruvchan kulning miqdori 6% dan; qoraygan barglar 5% dan oshmasligi zarur.

Qirg'ilgan va maydalangan xom-ashyoga bo'lgan talablar: 10 mm katta bo'lgan qismlar 10% dan; 0,5 mm elakdan o'tadigan qismlar 8% dan ortmasligi kerak. Efir moylarining miqdori har ikkala xolatlar uchun xam 1% dan kam bo'lmasligi lozim.

O'simlikning barglari 30-50 kg qoplarda omborxonalarda saqlanadi.

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI VA KIMYOVIY TARKIBI

Achchiq yalpiz barglari tarkibidagi efir moylarining miqdori janubiy rayonlarda 3%, shimoliy rayonlarda 2-2,5% ni; efir moyidagi mentolning miqdori esa 50-55% tashkil etadi. O'simlikning efir moyi mentol, menton, metilatsetat, mentafuran, seneol va boshqa biogen moddalar saqlaydi.

Efir moylari parfyumeriya, oziq-ovqat sanoatida, alkogolli maxsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

O'simlikning barglari efir moylaridan tashqari karotinga, organik kislotalarga va boshqa birikmalarga boydir. O'simlik barglaridan qon-tomirlarni kengaytiruvchi va tetiklashtiruvchi xushbo'y choylar, damlamalar tayyorlanadi.

O'simlikning asosiy ta'sir etuvchi moddasi mentol bo'lib, u nevrologiya, miyalgiya, artralgiya kasalliklarida og'riq qoldiruvchi sifatida, yana boshqa dorilar bilan qon-tomirlarni kengaytiruvchi, tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Mentol validol, valokardin preparatlari tarkibiga kiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov X.Q., Tashpulatov Y.Sh., Jalov X.X., Mukumov I.U. O'simliklar sistemikasi (Yuksak o'simliklar). Samarqand. 2019. -248 b.
2. Ismoilov B.S., Hasanov M.A. Botanika. Samarqand. 2020.-451 b.
3. V.Maxmudov, M.Akbarova, Z.Yusupova O'zbekistonning xom-ashyobob o'simliklari. Farg'ona. 2022.-23 b
4. www.wikipedia.org
www.plantarium.ru
www.theplantlist.org
www.indexfungorum.org